

Impact Factor: 4.917

ISSN: 2181-0966

DOI: 10.26739/2181-0966

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Informing scientific practices around the world through research and development



SAMARKAND
STATE MEDICAL UNIVERSITY

VOLUME 7
ISSUE 2
2026

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH
VOLUME 7, ISSUE 2



Главный редактор:

Ризаев Жасур Алимджанович
доктор медицинских наук, профессор, ректор
Самаркандского государственного медицинского
университета, Узбекистан

Заместитель главного редактора:

Юлдашев Абдуазим Абдувалиевич
доктор медицинских наук, профессор Ташкентского
государственного стоматологического института,
Узбекистан

РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

РЕДАКЦИОННО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Ответственный секретарь: А.С. Кубаев – доктор медицинских наук, профессор

Э.Н. Билалов

доктор медицинских наук, профессор

Д.М. Достмухамедов

доктор медицинских наук, профессор

О.Э. Бекжанова

доктор медицинских наук, профессор

А.М. Хайдаров

доктор медицинских наук, профессор

Л.Э. Хасанова

доктор медицинских наук, профессор

Т.Э. Зойиров

доктор медицинских наук, профессор

Э.А. Ризаев

доктор медицинских наук, профессор

Ж.Ф. Шамсиев

доктор медицинских наук, доцент

С.Х. Юсупалиходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ю.А. Шукурова

доктор медицинских наук, доцент

У.Ю. Мусаев

доктор медицинских наук, доцент

А.И. Хазратов

доктор медицинских наук, доцент

А.А. Ахмедов

доктор медицинских наук, доцент

У.Н. Вахидов

доктор медицинских наук, доцент

Ж.Д. Бузрукзода

кандидат медицинских наук

М.М. Исомов

кандидат медицинских наук, доцент

Д.Ф. Раимкулова

кандидат медицинских наук, доцент

М.К. Юнусходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ф.Ф. Лосев

доктор медицинских наук, профессор,
заслуженный деятель науки РФ

С.П. Рубникович

академик, доктор медицинских наук,
профессор (Беларусь)

Джун-Янг Пэн

доктор медицинских наук, профессор
(Корея)

Дзинити Сакамото

доктор философии, профессор
(Япония)

М.А. Амхадова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

О.С. Гилёва

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

М.Т. Копбаева

доктор медицинских наук, профессор
(Казахстан)

А.А. Антонова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

Р.О. Мухамадиев

доктор медицинских наук, профессор

Н.В. Шаковец

доктор медицинских наук, профессор
(Беларусь)

А.И. Грудянов

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

Д.С. Аветиков

доктор медицинских наук, профессор (Украина)

Верстка: Хуршид Мирзахмедов

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0966-2026-2>

Chief Editor:

Jasur A. Rizaev

*Doctor of Medical Sciences, Professor,
Rector of the Samarkand State Medical University,
Uzbekistan*

Deputy Chief Editor:

Abduazim A. Yuldashev

*Doctor of Medical Sciences, Professor of the
Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

EDITORIAL ADVISORY BOARD:

Executive Secretary: A. S. Kubaev - Doctor of Medical Sciences, Professor

E.N. Bilalov

Doctor of Medical Sciences, Professor

D.M. Dostmukhamedov

Doctor of Medical Sciences, Professor

O.E. Bekjanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

A.M. Khaidarov

Doctor of Medical Sciences, Professor

L.E. Khasanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

T.E. Zoyirov

Doctor of Medical Sciences, Professor

E.A. Rizaev

Doctor of Medical Sciences, Professor

J.F. Shamsiev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

S.H. Yusupalikhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

Yu.A. Shukurova

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.Yu. Musaev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.I. Khazratov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.A. Akhmedov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.N. Vakhidov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

J.D. Buzrukzoda

Candidate of Medical Sciences

M.M. Isomov

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

D.F. Raimkulova

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

M.K. Yunuskhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

F.F. Losev

Doctor of Medical Sciences, Professor,
Honored Scientist of the Russian Federation

S.P. Rubnikov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Belarus)

Jun-Yang Peng

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Korea)

Jinichi Sakamoto

Doctor of Philosophy, Professor
(Japan)

M.A. Amkhadova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

O.S. Gileva

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

M.T. Kopbaeva

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Kazakhstan)

A.A. Antonova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

R.O. Muxamadiyev

Doctor of Medical Sciences, Professor

N.V. Shakovets

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Belarus)

A.I. Grudyanov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

D.S. Avetikov

Doctor of Medical Sciences, Professor (Ukraine)

Page Maker: Khurshid Mirzakhmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Шарипов Хуршед Саиджонович, Ризаев Жасур Алимджанович, Ашуров Гаюр Гафурович РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	7
2. Икрамова Шахзода Анваровна, Ризаев Жасур Алимжанович ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЯ КЛИНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОСТОЯНИЯ ТВЕРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ И ПАРОДОНТА У ДЕТЕЙ С ХРОНИЧЕСКИМ ГАСТРОДУОДЕНИТОМ.....	11
3. Xamraeva Nilufar Xamzaevna, Turayeva Feruza Abdurashidovna ODAM PAPILLOMAVIRUSI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK VA PATOGENETIK XUSUSIYATLARI.....	16
4. Асадова Гульнара Межнун кизи ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА НА ФОНЕ БОЛЕЗНИ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	20
5. G'afforov Sunatullo Amrullayevich, Shamsiyeva Mahfuza Olimjon qizi BOLALAR SEREBRAL FALAJINING SPASTIK SHAKLLARIDA TISH-JAG', NUTQ VA HALQUM BUZILISHLARINI TASHXISLASH, DAVOLASH VA REABILITATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH.....	25
6. Бургутова Умидахон Мухаммаджоновна, Исакова Зухра Шарифкуловна ОПТИМИЗАЦИЯ ЛЕЧЕНИЯ ВТОРИЧНОЙ АДЕНТИИ У ПАЦИЕНТОВ С КОМОРБИДНОЙ ПАТОЛОГИЕЙ.....	30
7. Шарипов Хуршед Саиджонович ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПРИ ХИМИОЛУЧЕВОЙ ТЕРАПИИ.....	34
8. Muminova Dilnoza Raximovna EKOLOGIK BARKARORLIK, STOMATOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGI MUAMMOLARINI ILMY-AMALIY- TAJRIBALARDA ASOSLASH VA YECHIMLARI.....	39
9. Каршиев Шавкат Гофурович ХАРАКТЕРИСТИКА СОЧЕТАННЫХ ЧЕРЕПНО-ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПО ДАННЫМ РЕТРОСПЕКТИВНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	45
10. Эргашева Иродахон Уткирбек кизи, Хайдаров Артур Михайлович СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЙ СТАТУС У ЖЕНЩИН В КЛИМАКТЕРИЧЕСКОМ ПЕРИОДЕ: МОЛЕКУЛЯРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ.....	49
11. Джураева Ферангиз Хакимовна КЛИНИКО-РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕСТРУКТИВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПАРОДОНТЕ У ПАЦИЕНТОВ С ДЕКОМПЕНСИРОВАННОЙ ФОРМОЙ ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА.....	54
12. Хожимуродов Бурхон Равшанович СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАКТИКИ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПАЦИЕНТАМ С ЭПИЛЕПСИЕЙ, СОПРОВОЖДАЮЩЕЙСЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКИМ ГИНГИВИТОМ.....	58
13. Нарзиева Дилфуза Бахтиёрловна, Гаппаров Жахонгир Зафарович «УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ГИПЕРТОНУСА ЖЕВАТЕЛЬНЫХ МЫШЦ КОМПЛЕКСНЫМ ФИЗИОТЕРАПЕТИЧЕСКИМ И МЕДИКАМЕНТОЗНЫМ ПОДХОДОМ» (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	62
14. Raxmonova Shoxsanom Raxim qizi, Norova Mavjuda Bahodurovna SURUNKALI BUYRAK YeTISHMOVCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA TISH QATTIQ TO'QIMALARI ZARARLANISHLARINING PATOGENETIK MEKANIZMLARI.....	67
15. Narziyeva Dilfuza Baxtiyorovna, Xudoyqulov Sardor Sobirovich SURUNKALI QAYTALANUVCHI AFTOZ STOMATITNI KOMPLEKS DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (ADABIYOTLAR SHARHI).....	72

16. Orifxo‘jayeva Mehriniso Valijonovna, Norova Mavjuda Bahodurovna SURUNKALI LEYKOZLI BEMORLARDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I BIOTSENOZI BUZILISHLARI NATIJASIDA KELIB CHIQUVCHI STOMATOLOGIK KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI VA KOMPLEKS DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	77
17. Qodirova Maftunabonu Komilovna, Xabibova Nazira Nasulloevna NEONATAL DAVRDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I KANDIDOZINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI VA KOMPLEKS DAVOLASH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	82
18. Jabborova Feruza Uzoqovna, Elova Hanifa Rahmat qizi BACHADON BO‘YNI SARATONIDA OG‘IZ MUKOZITINING OG‘IRLIGINI STOMATOLOGIK KUZATISHDA OG‘IZ SUYUQLIGIDAGI IMMUNOGLOBULIN DARAJASINING QIYMATI.....	87
19. Хамраев Мирали Шерали ўғли, Гаффоров Суннатullo Амруллоевич, Пулатова Райхон Саидумаровна РОЛЬ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ И ЕЁ ПРОТОКОЛИРОВАНИЕ В ОРТОПЕДИЧЕСКОМ ПРОТЕЗИРОВАНИИ ДЕФЕКТОВ ЗУБНЫХ РЯДОВ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	91
20. Aslonova Gulnora Baxshilloyevna, Gafforov Sunnatullo Amrulloevich YUZ-JAG‘ SOHASI ONKOLOGIK PATOLOGIYALARIDA TASHXISLASH, DAVOLASH VA STOMATOLOGIK REABILITATSIYAGA YONDASHUVLARI TO‘G‘RISIDA.....	96
21. Махмудова Углой Бахтиёрвна, Ибодуллаев Равшан Абдижаббар угли РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИЗМЕНЕНИЙ КОСТНОЙ ТКАНИ В ОТДАЛЁННЫЕ СРОКИ ПОСЛЕ ПРОТЕЗИРОВАНИЯ ПАЦИЕНТОВ МОСТОВИДНЫМИ ПРОТЕЗАМИ.....	101
22. Irgashev Shokhrukh Xasanovich, Aslamov Akbarjon Akobirovich TRANSFORMATION OF DENTAL DIAGNOSTICS: FROM ANATOMICAL IMPRESSIONS TO DIGITAL MODELS BASED ON CAD/CAM TECHNOLOGIES.....	105
23. Chakkanov Faxritdin Khusanovich, Abdullayeva Malikabonu Umedjanovna MODERN METHODS FOR THE CORRECTION OF MALOCCLUSION IN CHILDREN AND ADOLESCENTS USING INNOVATIVE REMOVABLE EXPANSION APPLIANCES.....	109
24. Исламова Нилуфар Бустановна, Набиева Маржона Уктамовна ОПТИМИЗАЦИЯ СПОСОБОВ УСТРАНЕНИЯ ОСЛОЖНЕНИЙ В ПЕРИОД ПРИВЫКАНИЯ ПАЦИЕНТОВ К СЪЕМНЫМ КОНСТРУКЦИЯМ.....	114
25. Нуриддинов Улугбек Акбарович, Фаттахов Равшан Абдурашидович, Хасанова Лола Эмильевна, Хамидова Дильбар Авдуновна АКСИОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ ОДНОСТОРОННИХ ВЫВИХАХ ДИСКОВ ВНЧС.....	120

Orifxo'jayeva Mehriniso Valijonovna
Norova Mavjuda Bahodurovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti

**SURUNKALI LEYKOZLI BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I BIOTSENOZI BUZILISHLARI NATIJASIDA
KELIB CHIQUVCHI STOMATOLOGIK KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI VA KOMPLEKS DAVOLASH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20719746>

ANNOTATSIYA

Maqola surunkali leykoz fonida kechuvchi generallashgan parodontitni tashxislash va davolashda vena ichi lazerli qon nurlanishi (VLOK) terapiyasining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda leykozli bemorlarda og'iz bo'shlig'i biotsenozining buzilishi parodont to'qimalarida destruktiv jarayonlarni tezlashtirishi ko'rsatib o'tilgan. Muallif tomonidan an'anaviy davolash usullarini VLOK terapiyasi bilan to'ldiruvchi kompleks algoritmi ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, lazer terapiyasi qonning reologik xususiyatlarini yaxshilash va mikroflora muvozanatini tiklash orqali parodontdagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish hamda bemorlarning uzoq muddatli remissiyasini ta'minlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: surunkali leykoz, generallashgan parodontit, biotsenoz, VLOK terapiyasi, lazer stomatologiyasi, kompleks davolash.

Арифходжаева Мехринисо Валижонова
Норова Мавжуда Баходуровна
Бухарский государственный
медицинский институт

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ И КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ
СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ В РЕЗУЛЬТАТЕ НАРУШЕНИЙ БИОЦЕНОЗА
ПОЛОСТИ РТА У БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМ ЛЕЙКОЗОМ**

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению эффективности внутривенного лазерного облучения крови (ВЛОК) в диагностике и лечении генерализованного пародонтита у пациентов с хроническим лейкозом. В исследовании показано, что нарушение биоценоза полости рта на фоне лейкоза ускоряет деструктивные процессы в тканях пародонта. Автором разработан комплексный алгоритм, дополняющий традиционные методы лечения терапией ВЛОК. Результаты свидетельствуют, что применение лазерной терапии позволяет улучшить реологические свойства крови, восстановить микробный баланс, снизить воспалительные процессы в пародонте и обеспечить длительную ремиссию у данной категории больных.

Ключевые слова: хронический лейкоз, генерализованный пародонтит, биоценоз, терапия ВЛОК, лазерная стоматология, комплексное лечение

Orifkhodjaeva Mekhriniso Valijonovna
Norova Mavjuda Bakhodurovna
Bukhara State Medical Institute

**IMPROVEMENT OF DIAGNOSTIC METHODS AND COMPLEX TREATMENT OF DENTAL DISEASES
ARISING FROM ORAL BIOCENOSIS DISORDERS IN PATIENTS WITH CHRONIC LEUKEMIA**

ANNOTATION

The article is devoted to studying the effectiveness of intravenous laser blood irradiation (ILBI/VLOK) in the diagnosis and treatment of generalized periodontitis in patients with chronic leukemia. The study demonstrates that oral biocenosis disruption against the background of leukemia accelerates destructive processes in periodontal tissues. The author has developed a comprehensive algorithm integrating VLOK therapy with traditional treatment methods. The results indicate that laser therapy

improves blood rheological properties, restores microbial balance, reduces periodontal inflammation, and ensures long-term remission in these patients.

Key words: chronic leukemia, generalized periodontitis, biocenosis, VLOK therapy, laser dentistry, complex treatment

Kirish. Surunkali leykoz fonida rivojlanuvchi generallashtirgan parodontit patologiyasining etiologiyasi va patogenezini o'ziga xos ko'p omilli tabiatga ega bo'lib, bu jarayonda yetakchi rolni mikroblar assotsiatsiyasi egallaydi [11,16]. Tizimli gematologik kasallik oqibatida organizmning umumiy va mahalliy rezistentligi pasayishi natijasida patogen mikroorganizmlar va ularning toksinlari konsentratsiyasi keskin ortadi, bu esa yallig'lanish o'chog'ida to'qimalar destruksiyasini jadallashtiradi [1,8,12]. Mikroorganizmlarning shikastlovchi ta'siri, ayniqsa, immun tizimi faolligi pasaygan sharoitda ularning virulentligi ortishi va himoya mexanizmlarining neytrallash qobiliyati susayishi bilan namoyon bo'ladi [4,9,10,14].

Parodont to'qimalarining alteratsiyalanish jarayonida mikroblar tomonidan ishlab chiqariladigan kollagenaza, elastaza, fibrinolizin va xondroitinsulfataza kabi fermentlar asosiy destruktiv vazifani bajaradi [8,9,15]. Bu jarayonlar periapikal to'qimalarda mikrosirkulyatsiyaning sezilarli darajada buzilishi bilan kechadi, bu esa o'z navbatida odontogen o'choqlarning surunkali shaklga o'tishiga va fibroz o'zgarishlar rivojlanishiga zamin yaratadi [4,6,13]. Shuningdek, tomir-to'qima o'tkazuvchanligining ortishi yallig'lanish xarakteridagi asoratlarning shakllanishida muhim patogenetik bo'g'in hisoblanadi [2,7,17].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mikrosirkulyator tizimdagi defektlar nafaqat parodont yallig'lanishining patogenetik asosi, balki kasallikning klinik kechishi va og'irlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir [1,6,9]. Parodontning mikrosirkulyator havzasida qon tomirlari tonusining pasayishi, periferik qarshilik indekslarining o'zgarishi va tomirlar elastikligining susayishi yallig'lanish jarayonining tizimli xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi [3,9,16].

Tadqiqotning maqsadi: surunkali leykoz bilan og'irgan bemorlarda og'iz bo'shlig'i biotsenozi va mikrosirkulyatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, stomatologik patologiyalarni davolash va profilaktika qilishning individuallashtirilgan algoritmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot ishi 2024–2026-yillar davomida Buxoro shahar ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmasining gematologiya bo'limida surunkali leykoz fonida surunkali generallashtirgan parodontit (SGP) bilan kasallangan bemorlarni kuzatish va davolash natijalariga asoslangan.

Belgilangan ilmiy vazifalarni ijro etish maqsadida jami 110 nafar bemor tekshiruvdan o'tkazildi. Bemorlar kasallikning klinik kechishi va qo'llaniladigan davolash usullariga ko'ra guruhlarga ajratildi. Tadqiqotda qatnashganlarning yoshi 18 dan 70 yoshgacha bo'lib, jinsiy tarkibiga ko'ra erkaklar va ayollar nisbati mutanosibligi ta'minlandi.

Surunkali leykoz tizimli patologiya sifatida nafaqat qon yaratish tizimida, balki og'iz bo'shlig'i biotsenozi ham chuqur destruktiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Immun tizimi yetishmovchiligi va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining mahalliy rezistentligi pasayishi natijasida asosiy kasallikning kechishi SGP bilan yanada murakkablashadi.

Tadqiqot davomida klinik-stomatologik ko'rsatkichlar (KPU, OHI-S, PLI, PMA, PI), mikrobiologik va immunologik tahlillar o'tkazildi. Xususan, og'iz bo'shlig'i biotsenozi holatini baholash uchun so'lak ajralish tezligi, so'lak bezlarining funksional faolligi hamda kislot muvozanati (pH) ko'rsatkichlari o'rganildi. Immunologik tekshiruvlar doirasida qon va so'lak tarkibidagi IgA, IgM, IgG va IgE miqdorlari davolashdan oldin va keyingi dinamikada qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot guruhlari quyidagicha taqsimlandi:

1-guruh (Nazorat guruhi): Surunkali leykoz mavjud bo'lgan, ammo an'anaviy stomatologik davolash muolajalarini olgan bemorlar. Ushbu guruhda og'iz bo'shlig'i biotsenozi buzilishi 90% dan yuqori holatlarda kuzatilgan.

2-guruh (Asosiy guruh): An'anaviy davolash muolajalariga qo'shimcha ravishda Vena ichi lazerli qon nurlanishi (VLOK) terapiyasi qo'llanilgan bemorlar.

Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatdiki, surunkali leykozli bemorlarda so'lakning nomahsus himoya funksiyasi sezilarli darajada pasaygan. Masalan, mahalliy immunitet omili bo'lgan IgA miqdori va so'lakning bakteritsid xususiyatlari me'yoriy ko'rsatkichlardan o'rtacha 1,5–2 barobargacha pasayganligi aniqlandi. Bunday immunologik disbalans og'iz bo'shlig'ida patogen mikrofloraning faollashishiga va parodont to'qimalarida chuqur cho'ntaklar shakllanishiga olib kelgan.

Davolash jarayonida VLOK terapiyasining qo'llanilishi nafaqat mahalliy yallig'lanish belgilarini kamaytirishga, balki tizimli mikrosirkulyatsiyani yaxshilash orqali biotsenozi muvozanatini tiklashga qaratilgan. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili Microsoft Excel va taqqoslashning zamonaviy biometrik usullari yordamida amalga oshirildi.

Natijalar tahlili. Tekshiruvda surunkali generallashtirgan parodontit tashxisi bilan 70 nafar bemor qatnashdi. Barcha bemorlarda davolashgacha va davolashdan keyingi holatda stomatologik, immunologik va mikrobiologik ko'rsatkichlar baholandi. Davolash jarayonida VLOK terapiya usuli qo'llanildi.

1. Stomatologik ko'rsatkichlar dinamikasi

Davolashgacha bemorlarda KPU indeksi o'rtacha 12–17 oralig'ida bo'lib, bu kariesning yuqori darajasini ko'rsatadi. OHI-S indeksi (gigiyena) 3 ballga teng bo'lib, qoniqsiz gigiyena holatini bildiradi. PLI (blyashka indeksi) 2–3 ball, PMA indeksi 3 ball, PI (periodontal indeks) 2,5–5,0 oralig'ida bo'lgan.

1-jadval.

Davolashgacha va davolashdan keyingi stomatologik ko'rsatkichlar (o'rtacha)

Ko'rsatkich	Davolashgacha	Davolashdan keyin
KPU	13,2	13,0
OHI-S	3,0	1,8

PLI	2,5	1,2
PMA	3,0	1,0
PI	4,1	2,0

Davolashdan so'ng, VLOK terapiya ta'sirida, PMA va PI ko'rsatkichlari pasayishi kuzatildi. Parodontal cho'ntak chuqurligi yengil (3 mm) va o'rta (3–6 mm) darajadan 1–3 mm ga qisqardi. Og'ir darajali holatlar (6 mm dan yuqori) 10% holatda saqlandi.

2. So'lak biokimyoviy ko'rsatkichlari

So'lakning kislot muvozanati (pH) davolashgacha 6,4–7,2 oraliq'ida bo'lsa, davolashdan keyin 6,8–7,1 oraliq'ida normallasgan. So'lak ajralish tezligi giposekretsiya holatida (0,03–0,3 ml/daq) bo'lgan bemorlarda VLOK terapiyadan so'ng tezlik 0,2–0,5 ml/daq gacha ko'tarilgan.

2-jadval.

So'lak ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	Me'yor	Davolashgacha	Davolashdan keyin
Rn	6,8-7,2	6,5-7,2	6,8-7,1
So'lak tezligi (ml/daq)	0,31-0,6	0,03-0,3	0,2-0,5
SB funksional faolligi (abs.)	1,0-3,9	4,1-4,21	4,1-4,2

So'lak bezi funksional faolligi davolashdan keyin o'zgaragan, ammo giposekretsiya holati yaxshilangan.

3. Immunologik ko'rsatkichlar tahlili

VLOK terapiyadan keyin immunoglobulinlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi:

IgA (me'yor 0,45–2,1 n/l): davolashgacha 1,05–2,92, davolashdan keyin 1,03–4,18 oraliq'ida. Ayrim bemorlarda (№4, №10, №15) IgA me'yordan yuqori bo'lgan, bu VLOK terapiyasining gumoral immunitetni faollashtirganini ko'rsatadi.

IgM (me'yor 0,52–2,2 g/l): davolashgacha 1,07–2,52, davolashdan keyin 0,81–1,84. IgM pasayishi yallig'lanishning kamayishi bilan bog'liq.

IgE (me'yor 50 Ng/ml gacha): davolashgacha 89,1–203,7, davolashdan keyin 19,7–57,8. Allergik komponent keskin kamaygan.

IgG (me'yor 6–15 Ng/ml): davolashgacha 4,12–7,63, davolashdan keyin 4,12–9,38. IgG ning ko'tarilishi uzoq muddatli immunitetning shakllanishidan darak beradi.

3-jadval.

Immunoglobulinlar dinamikasi (o'rtacha)

Ko'rsatkich	Me'yor	Davolashgacha	Davolashdan keyin
Ig A (n/l)	0,45-2,1	1,68	1,45
Ig M (g/l)	0,52-2,2	1,68	1,25
Ig E (Ng/ml)	≤50	150,3	31,6
Ig G (Ng/ml)	6-15	6,02	7,45

IgE ning 150,3 dan 31,6 Ng/ml gacha pasayishi VLOK terapiyaning allergik reaksiyalarga nisbatan samaradorligini ko'rsatadi.

4. Mikrobiologik ko'rsatkichlar tahlili

Parodontit qo'zg'atuvchilariga qarshi VLOK terapiya samarali bo'ldi:

P. intermedia: davolashgacha 60,0–61,0, davolashdan keyin 30,0–31,5 gacha pasaygan.

P. gingivalis: davolashgacha 61,0–61,9, davolashdan keyin 30,0–31,8 gacha kamaygan.

T. forsythia: davolashgacha 51,0–52,0, davolashdan keyin 36,0–37,2 gacha tushgan.

T. denticola: davolashgacha 67,0–67,9, davolashdan keyin 35,0–36,0 gacha pasaygan.

A. actinomycetemcomitans: davolashgacha 52,0–53,0, davolashdan keyin 21,5–23,8 gacha kamaygan.

4-jadval.

Mikroorganizmlar soni dinamikasi (o'rtacha, nisbiy birlik)

Mikroorganizm	Davolashgacha	Davolashdan keyin	Kamayish%
P. intermedia	60,5	30,6	49,4
P. gingivalis	61,4	30,8	49,8
T. forsythia	51,5	36,6	28,9
T. denticola	67,3	35,5	47,2

A. actinomycetemcomitans	52,6	22,7	56,8
--------------------------	------	------	------

Eng yuqori samara A. actinomycetemcomitans ga nisbatan kuzatildi (56,8% ga kamaygan). Eng past samara T. forsythia da (28,9% ga kamaygan).

Davolashgacha bemorlarda immun faoliyatning yetishmovchiligi yaqqol namoyon bo'lib, qon va so'lak tarkibidagi immunoglobulinlar miqdori pasaygan. Xususan, so'lakda IgA konsentratsiyasi o'rtacha 1,6–2,1 barobarga kamaygani, IgG va IgM ko'rsatkichlari ham mos ravishda past darajada saqlanishi kuzatildi. Bu holat og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining mahalliy himoya mexanizmi susayganidan dalolat beradi.

VLOK terapiyasi qo'llanilganidan so'ng immunologik ko'rsatkichlarda ijobiy siljishlar qayd etildi. Davolashdan keyin so'lakda IgA miqdori nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajaga ko'tarildi, IgG va IgM nisbati normallashtirish tomon tendensiyaga ega bo'ldi. Shuningdek, davolashdan keyingi davrda IgE miqdorining nisbiy pasayishi allergik-yallig'lanish reaksiyalarining intensivligi kamayganini ko'rsatadi.

Mikrobiologik tahlillar natijalari

Mikrobiologik tekshiruvlarda davolashgacha parodont cho'taklarida opportunist va parodontopatogen mikroorganizmlar assotsiatsiyasi ustunlik qilishi ma'lum bo'ldi. Mikroflorada patogen turlar ulushi yuqori bo'lib, og'iz bo'shlig'i biotsenozining disbioz holati shakllanganligi tasdiqlandi. An'anaviy davo muolajalari o'tkazilgan bemorlarda mikroob jamoasi tarkibida o'ta o'rtacha ijobiy o'zgarishlar kuzatildi, ammo patogen shtammlar saqlanib qolishi kuzatildi.

VLOK qo'llanilgan asosiy guruhda davolashdan keyin mikrobiologik ko'rsatkichlar sezilarli yaxshilandi: patogen mikroflora ulushi kamayib, shartli patogen mikroorganizmlar konsentratsiyasi pasayishi qayd etildi. Bu o'zgarishlar parodontdagi yallig'lanish jarayoni faolligining pasayishi va biotsenoz muvozanatini tiklashga hamohangdir.

Kislota-asos muvozanati (pH) va so'lak parametrlari

So'lak ajralish tezligi va so'lakning kislota muvozanati davolashgacha buzilgan bo'lib, disbioz bilan bog'liq mahalliy trofik va himoya jarayonlari susayganini ko'rsatdi. Davolashdan so'ng, ayniqsa VLOK terapiyasi qo'llanilgan bemorlarda, so'lakning bufer imkoniyatlari yaxshilangan, pH ko'rsatkichlari neytrallashtirish tomon siljigani kuzatildi. Natijada kariesogen va parodontopatogen omillar ta'sirining biologik fon barqarorlashuvi ta'minlandi.

Klinik kechish va remissiya davomiyligi

Davolashdan keyingi kuzatuvlarda parodontda yallig'lanish belgilarining barqaror kamayishi qayd etildi. Asosiy guruh bemorlarida qonash, shish, og'riq va gingivit simptomlari tezroq yo'qolib, qayta kuchayish holatlari nazorat guruhiga nisbatan kamroq uchradi. VLOK terapiyasi kompleks yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida og'iz bo'shlig'i biotsenozini uzoq muddat saqlab qolish imkonini berdi, bu esa uzoq muddatli remissiyani ta'minlashda patogenetik asosga ega.

Taklif etilayotgan kompleks algoritmi

Surunkali leykoz fonida SGP bilan kasallangan bemorlarda davolashning individuallashtirilgan algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat qilib taklif etildi:

Klinik-stomatologik baholash va indekslar monitoringi;

Mikrobiologik va immunologik tekshiruvlar natijalari asosida davo strategiyasini tanlash;

An'anaviy mexanik-lokal terapiyani o'tkazish;

Kompleks davoga VLOK terapiyasini qo'shish orqali mikrosirkulyatsiya va immun reaktivlikni normallashtirish;

Profilaktik nazorat va remissiya davrida parodont to'qimalarini qo'llab-quvvatlovchi parvarish tadbirlarini amalga oshirish.

Olingan natijalar surunkali leykoz fonida og'iz bo'shlig'i biotsenozini buzilishi parodont to'qimalaridagi destruktiv jarayonlarni kuchaytirishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. VLOK terapiyasi orqali tizimli mikrosirkulyatsiya yaxshilanishi va qonning reologik xususiyatlari barqarorlashishi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, mikroflora muvozanatining qayta tiklanishi va immunologik ko'rsatkichlarda ijobiy siljishlar kompleks davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

VLOK terapiyadan so'ng:

Stomatologik ko'rsatkichlar (OHI-S, PLI, PMA, PI) yaxshilangan;

So'lak ajralish tezligi me'yorgan yaqinlashgan;

IgE darajasi keskin pasayib, allergik komponent susaygan;

Parodontit qo'zg'atuvchilarining 50-57% gacha kamayishi kuzatilgan.

Bu natijalar surunkali generallashtirilgan parodontitni kompleks davolashda VLOK terapiyaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari surunkali generallashtirilgan parodontitni kompleks davolashda VLOK terapiya usulining yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tajribada 70 nafar bemor ishtirok etgan bo'lib, ularning barchasida davolashgacha va davolashdan keyingi holat batafsil o'rganildi.

Stomatologik ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, VLOK terapiyadan so'ng og'iz bo'shlig'i gigiyenasi sezilarli yaxshilangan. Jumladan, OHI-S indeksi 3,0 dan 1,8 ga, PLI indeksi 2,5 dan 1,2 ga pasaygan. PMA indeksining 3,0 dan 1,0 ga tushishi yallig'lanish jarayonining regressiyaga uchraganini isbotlaydi. Parodontal cho'taklar chuqurligi esa o'rtacha 1–3 mm ga qisqargan.

So'lak biokimyoviy tadqiqotlari davolashdan keyin kislota muvozanatining normallashtirilganini ko'rsatdi. Ayniqsa, giposekretsiya holatidagi bemorlarda so'lak ajralish tezligi 0,03–0,3 ml/daq dan 0,2–0,5 ml/daq gacha oshgan. Bu VLOK terapiyaning suvsizlanish va so'lak bezlari funksiyasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Immunologik tekshiruvlarda VLOK terapiyaning allergik komponentni susaytirishdagi samaradorligi aniqlandi. Eng muhim o'zgarish IgE darajasining 150,3 Ng/ml dan 31,6 Ng/ml gacha pasayishi bo'ldi. Bu organizmning immun javobi me'yorlashishini bildiradi. IgM ning kamayishi (1,68 dan 1,25 g/l gacha) esa yallig'lanishning yengillashganidan darak beradi.

Mikrobiologik tahlillar VLOK terapiyaning parodontit qo'zg'atuvchi anaerob bakteriyalarga nisbatan yuqori bakteritsid faolligini ko'rsatdi. Eng yorqin natija A. actinomycetemcomitans ga nisbatan kuzatildi — bu mikroorganizmlar soni 56,8% ga kamaygan. Shuningdek, P. intermedia (49,4%) va P. gingivalis (49,8%) lar ham sezilarli darajada susaygan. Eng kam samara T. forsythia ga nisbatan bo'lsa-da (28,9% ga kamayish), u ham klinik ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, VLOK terapiya surunkali generallashtirilgan parodontitni davolashda: mahalliy yallig'lanishni kamaytiradi; og'iz bo'shlig'i gigiyenasini yaxshilaydi;

so‘lak ajralish tezligini me‘yorlashtiradi; Taqdim etilgan ma‘lumotlar VLOK terapiyani ushbu immunologik ko‘rsatkichlarni (ayniqsa, IgE) patologiyani kompleks davolashga kiritishning ilmiy normallashtiradi; asoslanganligini tasdiqlaydi.
parodontit asosiy qo‘zg‘atuvchilarini 50–57% gacha reduksiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов С. П. Особенности микробиологических показателей ротовой полости при лейкозах // ИСЧЛХ. 2022. №1.
2. Бойко Г. И., Максимова Л. И., Трофимук В. А. Ретроспективный анализ влияния местных и общих соматических заболеваний на развитие кандидоза слизистой оболочки полости рта // Современная стоматология. 2022. №4 (89).
3. Бойко Г. И., Палий Л. И., Трофимук В. А. Клинические аспекты кандидоза слизистой оболочки полости рта // Современная стоматология. 2017. №4 (69).
4. Бойко Г. И., Трофимук В. А. Дифференциация кандидозных поражений слизистой оболочки полости рта в зависимости от течения и степени тяжести заболевания // Современная стоматология. 2021. №1 (82).
5. Дурягина Л. Х., Колесник В. М., Дегтярева Л. А., Седых В. П., Андрианова И. И., Прийма Н. В., Саенко Т. С., Дубровина Т. А., Вахтина Е. Б., Дорофеева О. В. Некоторые аспекты течения заболеваний пародонта и слизистой оболочки полости рта при сочетании с соматической патологией: обзор литературы // Крымский терапевтический журнал. 2020. №1.
6. Заркумова А. Е. Структура заболеваемости слизистой оболочки полости рта // Вестник КазНМУ. 2017. №3.
7. Караев И. И., Рахматова Р. А., Бакиева Г. Т. Нарушения деятельности пищеварительной системы у детей с лимфобластным лейкозом острого течения и их профилактика // Медицинский вестник Национальной академии наук Таджикистана. 2019. №2 (30).
8. Кириллова В. П., Ткач Т. М., Лямин А. В., Трунин Д. А., Серазетдинова А. Р. Микробный пейзаж слизистой оболочки полости рта больных лейкозом на фоне клинической картины кандидоза // Оренбургский медицинский вестник. 2015. №3 (11).
9. Ковач И. В., Хотимская Ю. В. Динамика уровня микробной обсемененности полости рта у детей с острыми формами лейкомии после применения лечебно-профилактического комплекса // Инновации в стоматологии. 2016. №4 (14).
10. Козак Д. М., Овсянникова Е. Г. Клинико-гематологическая характеристика и осложнения хронического лимфолейкоза в Астраханском регионе // Астраханский медицинский журнал. 2024. №1.
11. Корень Н. А., Ткаченко Т. Б., Владимиров Л. Г., Абдуллаева Ш. Р., Семенова Е. В. Особенности базовых показателей ротовой жидкости у детей, перенесших трансплантацию гемопоэтических клеток (пилотное исследование) // Ученые записки СПбГМУ им. И. П. Павлова. 2019. №4.
12. Кочурова Е. В., Муханов А. А. Особенности экспрессии матриксинов в зависимости от локализации плоскоклеточного рака слизистой оболочки полости рта // Успехи молекулярной онкологии. 2017. №S4.
13. Кряжинова И. А., Олесов Е. Е., Садовский В. В., Степанов А. Ф., Попов А. А. Онкологическая настороженность врачей-стоматологов по данным анкетирования в Московской области // Медицина экстремальных ситуаций. 2019. №2.
14. Луцкая И. К., Камышников В. С. Поражение слизистой полости рта при заболеваниях системы крови // Клинический разбор в общей медицине. 2021. №3.
15. Обухов Ю. А., Жуковская Е. В., Карелин А. Ф. Минеральный гомеостаз ротовой жидкости у детей и подростков, перенесших лечение злокачественных новообразований // Здоровье и образование в XXI веке. 2021. №6.
16. Обухов Ю. А., Карелин А. Ф. Контроль здоровья ротовой полости детей и подростков, перенесших лечение злокачественных новообразований // Педиатрический вестник Южного Урала. 2018. №2.
17. Попруженко Т. В. Стоматологическая помощь детям с острым лимфобластным лейкозом в амбулаторных условиях на этапах диагностики заболевания, планирования противоопухолевой терапии и после ее завершения // Современная стоматология. 2018. №2 (71).



ISSN 2181-0966

Doi Journal 10.26739/2181-0966

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000